

MODDIY VA MA'NAVIY MEROS

Otamuratov Sadulla

Falsafa fanlari doktori, Toshkent kimyo texnologiyalari instituti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi professori

E-mail: sadulla-atamurat@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola moddiy va ma'naviy meros masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda "moddiy meros", "ma'naviy meros" tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, ular orasidagi farqli jihatlar, o'xshash tomonlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: meros, moddiy, ma'naviy, millat, yodgorliklar, urf-odat, an'analar, qadriyatlar.

KIRISH

Meros – insoniyatning har bir tarixiy bosqichida yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir.

Meros ikki shaklda namoyon bo'ladi: A) moddiy meros B) ma'naviy meros. Moddiy meros deb, o'tmish avloddan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan zamonlar osha barqarorlik sinovidan o'tgan, saralangan insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan uning qo'l mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy madaniyat majmuiga aytiladi.

O'tmishdagi barcha moddiy yodgorliklar meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatlarga ega bo'lavermaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma'naviy yuksakligiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta'sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlari hisobga olinadi.

Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni meros sifatida qabul qili oladi. Tarixiy vorislik jamiyat va insoniyat va uning madaniy ravnaqi shartidir. Ming afsuslar bo'lsinki, sho'rolar xukmronligi davrida madaniy merosga to'g'ri munosabatda bo'linmadi. "Boyuzamindorlarga, hokim, sinf-tabaqalilarga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi proletar (yo'qsillar) madaniyatini yaratamiz" degan shior ostida sobiq sovet ittifoqi xalqlarining jumladan, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy merosiga qiron

keltirildi, saroy, masjid va madrasalar buzilib tashlandi, qarovsiz xaroba holiga keltirildi, nodir asarlar yondirildi. Bu siyosat tufayli butun madaniy merosimiz toptaldi. Mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingina madaniy merosimiz qayta tiklandi. Moddiy meros ma'naviy meros o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuning bilan birga o'rtasida ma'lum mustaqillik ham mavjuddir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Moddiy merosda umumiylik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman moddiy madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olsa, ma'naviy meros ma'naviy madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi.

Ma'naviy meros deb, uzoq va yaqin o'tmishdagi, davrdagi ma'naviy jihatdan g'oyat qimmatli, o'lmas iz qoldiradigan mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaat va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma'naviy boyliklarga aytiladi.

Ma'naviy meros butun insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lib, ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Unga ilm-fan, falsafa, adabiyot, san'at, ahloq, dindagi real, dunyoviy ta'limotlar, hurfikrlilik va boshqalar kiradi. Ya'ni ma'naviy meros ular orqali namoyon bo'ladi. Madaniy meros esa real madaniy boyliklar orqali namoyon bo'ladi. O'z navbatida ular o'rtasida uyg'unlik har doim amal qilib boradi.

“Ma'naviy meros” keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. U insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ilg'or g'oyalar, axloq, urf-odat, an'ana, qadriyat, ulkan kashfiyotlar, fan va uning yutuqlari, din, tasviriy san'at asarlari, diniy va dunyoviy asarlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy merosning moddiy merosdan farqli tomoni shundaki, uning aksariyat ko'pchiligini inson qo'l mehnati bilan emas, balki bevosita aql-zakovati bilan yaratadi va bir tarixiy bosqichda yaratilgan merosdan keyingi avlod bahramand bo'ladi. Shu tariqa meros orqali avlodlar o'rtasida vorisiylik vujudga keladi. Shu ma'noda ham meros o'tmish bilan bugunni bog'lab turadigan qudratli ko'prik hisoblanadi. Bu kontseptual g'oya moddiy va ma'naviy meros uchun har bir xil mazmunga ega. Moddiy meros tarixiy obidalar, shaharlar, qo'lyozmalar va boshqa shakllarda yetib kelsa, ma'naviy meros, axloq, ilmiy kashfiyotlar, urf-odat, an'ana, qadriyatlar, xalq qahramonlari obrazlari, tasviriy san'at asarlari kabilar shaklida keyingi avlodlarga yetib keladi.

Meros nafaqat moddiy va ma'naviy boylik, shuningdek, hayotiy tajribalar maktabi hamdir. Insoniyat o'z ajdodlari hayotiy tajribalaridan, o'zi uchun zarur bo'lgan saboq oladi, ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qiladi, ularning turmush tarzi, hayoti va axloqidagi eng oliyjanob qirralarni

o'zlashtiradi hamda ularni o'z zamonining darajalari va ehtiyojlariga qarab boyitib boradi. Islom Karimov uning tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olib, komil insonni tarbiyalash vazifasini belgilab berar ekan, quyidagicha ta'kidlaydi: "Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon – e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat" [1, 25].

Millatsiz insoniyat bo'lmaganidek, insoniyatsiz millat ham bo'lmaydi. Demak, meros ham, eng avvalo, milliy o'ziga xoslikka ega, undan keyin esa, merosning eng ilg'or, boshqa millatlar uchun ham xizmat qiladigan tomonlari va xususiyatlari umuminsoniyat mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham meros haqida fikr yuritganda, avvalo, milliy merosning mohiyati, mazmuni va millat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi.

Milliy meros deganimizda, tarixiy taraqqiyotning o'tmishga aylangan bosqichida millatning ajdodlari aql-zakovati, qobiliyati va mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar tushuniladi. Ular ham ikki qismga: moddiy va ma'naviy merosga bo'linadi. O'z navbatida, moddiy meros o'zida moddiylikni aks ettirish bilan bir vaqtda ma'naviylikni ham namoyon etadi. Chunki, har qanday moddiy meros insonning aql-zakovati, his-hayajoni, dunyoqarashi, go'zallik bilan xunuklikni anglash darajasi mahsuli, qalbi, ya'ni uning botiniy salohiyatining ham mahsulidir. Ularsiz yaratilgan har qanday narsa chinakam meros darajasiga ko'tarilolmaydi. Shuning uchun ham ularning ayrimlari o'zlari yaratilgan tarixiy bosqichda yo'q bo'lib ketadilar. Ma'naviy merosning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritganimizda, uning milliy o'ziga xosligining mohiyatini tushunib olishimiz lozim bo'ladi.

Milliy-ma'naviy meros millat shakllanishining turli tarixiy bosqichlarida uning ajdodlarining aql-zakovati, urf-odat, an'analar, qadriyatlar, ma'naviyati, xattixarakatlari, dunyoni anglashi, tabiiy boyliklardan foydalana bilishida to'plangan ijobiy tajribalari, mahoratlari, salohiyatining majmuasi hisoblanadi.

Milliy-ma'naviy meros millatning bevosita o'zi bilan bog'liq bo'lgan boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham u millatning taraqqiy qilishida unga va tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning bu ahamiyatini Islom Karimov quyidagicha ko'rsatib beradi: "Biz bugun ayrim davlatlardan moddiy nuqtai nazardan orqaroqda bo'lsak-da (bunga ko'pgina tarixiy ab'ektiv sabablar bor), ma'naviyat nuqtai nazaridan qaraganda, ulkan g'urur bilan aytishimiz mumkin: ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlar va urf-odatlarga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu boradagi ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof

etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada boyitib – rivojlantirib, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida kelajagimiz binosini barpo etish muqaddas burchimizdir” [1, 31].

Milliy-ma'naviy meros quyidagilarda o'z ifodasini topadi: 1) urf-odat, an'ana, marosim, qadriyatlarda; 2) dunyoqarashda; 3) turli rasm-rusumlarda; 4) dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan kashfiyotlarda; 5) millat ajdodlari ichidan yetishib chiqqan buyuk allomalar va ular yaratgan asarlarda; 6) davlatchilikda; 7) millat hayoti va tarixida tub burilish yasagan buyuk shaxslar kabilarda. Ularning har birini millat asrlar davomida shakllantiradi va keyingi avlodga meros sifatida qoldiradi. Endi ularning har biri haqida to'xtalamiz: Urf-odat, an'ana va qadriyatlar millatning shakllanish jarayonida, uning kundalik turmushida yuzaga keladi. Ular avlodan-avlodga o'tib, kundalik hayotda takrorlanib, millat vakillarining hatti-harakatlari, xulq-atvori va ko'nikmalarini o'zida ifoda etadi.

Urf-odat va an'ana tushunchalariga taniqli faylasuf olim U.X.Qoraboev quyidagicha ta'rif beradi: “An'ana – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avlodan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida kishilar ongiga singigan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasidir” [2, 15].

“Xalq an'analari” tushunchasining ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: Xalq an'analari – uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avlodan-avlodga o'tib tarqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan. Odat (urf-odat) kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi hatti-xarakati, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir.

Urf-odat va an'analarning uzoq muddat davomida nisbatan saqlanuvchanligi va ayni paytda, kundalik turmush hayotida eng ko'p etuvchanligi milliy-ma'naviy merosning tarkibiy qismi bo'lishini ta'minlaydi. Ularning nisbatan uzoq vaqt amal qilishi, kundalik turmush va hayotda ko'p ishtirok qilishi millatning birligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali millat vakillari o'zaro ma'naviy yaqinlashib boradi hamda boshqa millatlarga xos bo'lmagan, faqat o'zlariga xos bo'lgan, o'z zamoniga mos keladigan yangi-yangi urf-odat va an'analarni shakllantirib boradi. Ular qadriyatlarga aylanadi. Qadriyat urf-odat, an'ana

tushunchasidan farq qiladi. U millat ehtiyoji, manfaatlari, maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ne'matlar majmuasini tashkil qiladi.

Milliy ma'naviy merosda millatga xos bo'lgan rasm- rusumlar ham muhim o'rin egallaydi. Rasm-rusumlar millat tarbiyasining ma'lum tizimida aniq urf-odat, an'ana va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan muayyan, ramziy, ma'suliyatli harakat hisoblanadi.

Rasm-rususmlar – millat fe'l-atvorining aniq maqsadini ko'zlovchi normalarni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Ularning tarakterili xususiyati shundaki, u aniq maqsadni amalga oshirish tomon qilinadigan harakat bo'lib, urf-odat, an'ana va qadriyatlar kabi shakllangan emas, balki shakllantirishga qaratilgan amaliy harakatlarni majmuasini tashkil qiladi.

Dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan kashfiyotlar ham milliy ma'naviy merosning muhim qismini tashkil qiladi. Bunday kashfiyotlarni o'zining yuksak intellektual ma'naviy salohiyatiga ega bo'lgan millat vakillariga amalga oshirishi mumkin. Bunday kashfiyotlar fan, madaniyat, falsafa, texnika, texnologiya va boshqa sohalarida amalga oshirilishi mumkin.

Ana shunday kashfiyotlar o'zbeklarning avlod-ajdodlariga bo'lgan Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek kabilar tomonidan amalga oshirilgan. Ular tomonidan qilingan kashfiyotlar bugun butun insoniyatga xizmat qilib kelmoqda va uning ma'naviy boyligining ajralmas qismiga aylangan. Bu kashfiyotlar, eng avvalo, o'zbek millatining milliy ma'naviy merosi va uning intellektual hamda ma'naviyatini olamga tanitgan, qolaversa, butun dunyo xalqlariga xizmat qilib, umuminsoniyat mulkiga aylangan. Ular tomonidan qilingan kashfiyotlar milliy ma'naviy merosiga aylanib, bugun butun insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Ularning ma'naviy meros sifatidagi ahamiyati shundaki: a) avvalo, ular millat aql-zakovati, salohiyati, yuksak ma'naviyatining mahsuli; b) ular millat taraqqiyotining uzoq tarixiy bosqichida yaratilganiga qaramasdan, uning bugungi va istiqbolda dunyoga keladigan avlodlariga ham xizmat qilib kelaveradi.

Milliy ma'naviy merosimizda "Avesto" alohida ahamiyatga egadir. Chunki, u o'zbek xalqi, uning davlatchiligi, ma'naviyati uzoq tarixiy davrlar bilan bog'liq va nihoyatda boy ekanligini tasdiqlovchi nodir manba, hujjatdir. Unda ilgari surilgan "yaxshi fikr", "yaxshi so'z", "yaxshi amal" g'oyalari millatimizning ma'naviyatini shakllanishi, undagi insoniylik tuyg'ularining barq urib rivojlanishida ma'naviy-ruhiy omil bo'lib xizmat qilgan deyishimizga to'liq asos bor. "Avesto" o'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosi sifatida bugun uning dovrug'ini olamga tanitgan manbadir. Unda ilgari surilgan insonparvarlik g'oyalari bilan bir qatorda arablar istilosigacha bo'lgan davrda o'zimizning dinimiz, davlatchiligimiz va uni boshqarish

madaniyati mavjud ekanligi o'zbek xalqi dunyo sivilizatsiyasida munosib o'ringa egaligini tasdiqlaydi.

Bu xaqda Islom Karimov quyidagicha ta'kidlaydi: “Eng mo'tarbar, qadimgi qo'lyozmamiz “Avesto”ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzarlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirilgan ma'naviy, tarixiy merosdir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi” [2, 10].

Haqiqatdan ham, bu nodir qo'lyozma o'zining salobati bilan o'zbek xalqining qaddini ko'tarib, uning mustaqillig sharoitida milliy-ma'naviy tiklanishida manba bo'lib xizmat qilmoqda. Millatning avlod-ajdodlari ichidan yetishib chiqqan buyuk allomalar va ularning asarlari ham milliy ma'naviy merosning ajralmas qismini tashkil qiladi. Jumladan, islom dini Arabistonda g'oya sifatida vujudga kelgan bo'lsa, uning ma'naviyat va qadriyat darajasiga ko'tarilib, dunyoda ommaviylashib ketishida Ismoil al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Abu Mansur al-Motrudiy va boshqa allomalar katta rol o'ynaganlar. Tasavvuf ta'limoti, uning o'ziga xos yo'nalishlarining asoschilari Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi komil insonlar va ular tomonidan yaratilgan ta'limotlar ham milliy-ma'naviy merosimizning buyuk xazinasini tashkil qiladi.

Buyuk bobolarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan diniy va dunyoviy ta'limotlarga emas, shuning bilan birga ularning o'zlari ham millatimizning komil insonlari sifatida milliy-ma'naviy merosimizning ajralmas qismini tashkil qilib turibdi. Ularning asarlari va komil insoniylik sifatleri bugun milliy tiklanishimizga, yoshlarimizni komillik ruhiyatida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Milliy davlatchilik ham milliy ma'naviy merosda alohida o'ringa egadir. Chunki, dunyodagi barcha millatlar biri ikkinchisiga o'xshamagan davlatlarni vujudga keltiradilar. Davlatchilikda milliy xususiyatlar, mentalitet o'z ifodasini topadi. Millatni davlatchilikning tayyor andozalariga asoslanib, milliy davlatini shakllantirishga majburlab bo'lmaydi. Har bir xalq o'zining ma'naviy, milliy xususiyatlari, kundalik hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'z davlatini shakllantiradi. Hatto, uning milliy ehtiyojiga eng mukammal deb e'tirof etilgan andozalar ham javob bermaydi.

Shu ma'noda ham, bugun o'z milliy davlatchiligimizni shakllantirayotganimizda, ajdodlarimiz tomonidan bundan uch ming yil avval vujudga keltirilgan, o'zimizning ma'naviy ehtiyojlarimizga javob beradigan davlatchiligimiz an'analaridan unumli foydalanib kelmoqdamiz.

Shu ma'noda ham, milliy davlatchilik milliy-ma'naviy merosning ajralmas qismi sifatida millat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Millat hayoti va tarixida buyuk burilish yasagan shaxslar ham milliy-ma'naviy merosning ajralmas qismini tashkil qiladi. Ular o'zlarining yaratgan asarlari, millatning ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasorati, milliy madaniyatni asrash, uni rivojlantirish yo'lida ko'rsatgan fidoiyligi va millatni yangi taraqqiyot yo'lidan borishidagi tashkilotchiligi, yetakligi hamda millatparvarligi bilan alohida ajralib turadilar. Ularning nomlari millat tarixida abadiy muhrlanib qoladi. O'zbek millatining ichidan ham ko'plab ana shunday shaxslar yetishib chiqqanlar. Jumladan, Sulton Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Amir Temur, jadidlar, sho'rolar xukmronligiga qarshi kurash olib borgan Vatandoshlarimiz, sho'rolarning millatimizga qarshi olib borgan zulm va zo'ravonligidan xalqimizni himoya qilib kelgan Sharof Rashidov, buyuk bobomiz Amir Temur nomini va jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini sho'rolarning qilichidan qon tomib turgan paytda katta jasorat bilan himoya qilgan akademik Ibrohim Mo'minov, millatimizni zo'ravon sho'rolar hukmronligidan ozod bo'lishida jasorat va fidoiyligini ko'rsatgan Islom Karimov va boshqalardir.

Sulton Jaloliddin Manguberding millatimiz tarixida va ma'naviyatida tutgan o'rnini uning Vatanni himoya qilishda ko'rsatgan jasorati bilan alohida ahamiyatga egadir. Uning jasorati Chingizxondek bosqinchi tomonidan e'tirof etilgan. U o'zi bilan bo'lgan jangda Manguberdi tomonidan ko'rsatilgan jasoratga qoyil qolib, o'g'illariga qarab "otaning o'g'li shunday bo'lmog'i lozim. Suv bilan olovning ikki girdobidan qutilib najot sohiliga omon yetib oldimi, undan bizlarga beadad ishlar va behisob tahlikalar tug'ilajak" [3, 224], - deb xitob qilgan.

Mirzo Ulug'bekning guvohlik berishicha, o'z o'g'illari va kuyovlari bilan bir yig'inda u shunday degan ekan: "Otdan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan, u sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan, hech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi" [4, 183]. U o'zining ona Vatanini himoya qilishdagi jasorati bilan o'zbek xalqi milliy-ma'naviy merosidan munosib o'rin egallagan. Uning jasorati o'zbek millatini jahonga mashhur qilib, bugungi yoshlarimizda millatparvarlik, Vatanparvarlik va fidoiyligini ruhiyatini shakllantirishda ma'naviy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uning Vatanparvarlik jasorati o'zbek millati Vatanparvarligini bugungi zamon darajasida shakllantirishda nafaqat ma'naviy manba, shuning bilan bir vaqtda, o'zbek Vatanparvarligida buyuk burilish yasaganligini ko'rish mumkin.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy o'zbek millati ma'naviy hayotida katta burilish yasagan buyuk shaxs hisoblanadi. O'zbeklarning dunyo ma'naviyati va falsafasida

ma'lum hamda mashhur bo'lishida u tomonidan qoldirilgan meros katta ahamiyatga ega bo'ldi. U yaratgan asarlar va ularda ilgari surilgan insonparvarlikni, muhabbatni ulug'lashga qaratilgan g'oyalar o'zbek xalqi ma'naviyatining asosiy manbasi, merosi sifatida umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar tizimidan munosib o'rin olgan hamda ularga ham xizmat qilib kelmoqda.

Alisher Navoiy siyomosida jahon xalqlari u yashagan davr sivilizatsiyasida o'zbeklarning nomi va o'rnini anglab kelmoqdalar. Bobomiz Mirzo Bobur ham millatimiz ma'naviy merosida katta o'rin egallab kelmoqda. U o'zbek millatining farzandi bo'lib, Hindistonda Boburiylar davri madaniyatini shakllantirgan insondir. Uning siyomosida o'zbek millatining ma'rifati, she'riyati, davlatni boshqarish san'ati, Vatanni sevishi kabi xislatlar namoyon bo'lganigini ko'rish mumkin. Uning merosi ham millatimiz ma'naviy hayotida buyuk burilish yasay olgan.

Jadidchilik harakati ham millatimiz siyosiy va ma'naviy hayotida katta burilish yasay olgan. Bu xarakat namoyondalari Maxmudxo'ja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Fitrat va boshqalar ilgari surgan g'oyalar o'zbek millatini ma'rifatli qilish, uning milliy ongini o'stirish orqali o'z erkini qo'lga kiritishga qaratilgan edi.

Ularning g'oyalari va faoliyati haqida jadidshunos olim B.Qosimov shunday yozadi: "Jadidchilik g'oyalari erta bahorning shiddatli shamoli singari po'panak bosib, biljirab ketgan rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldek bo'lib, millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgan haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaq nab, uning bag'ridagi jarohatlarini yoritdi. Obi rahmat bo'lib, ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollarigahayot baxsh etdi. Bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi..." [5, 4].

XULOSA

Ular nafaqat g'oyalari hamda uni amalga oshirishdagi faoliyatlari bilan, balki, o'zlarining komil inson ekanliklari bilan milliy-ma'naviy merosimizda katta o'rin egallaydilar. Zero, o'zining hayotini, butun borlig'ini millatining ozodligi, mustaqilligiga bag'ishlagan insonlargina komillik darajasiga ko'tarila olishi mumkin. Zo'ravonlar o'z manfaatlari yo'lida hech narsani ayamagan, hech kimga rahm-shafqat qilmagan birsharoitda, jadidlar katta jasorat va matonat bilan milliy istiqloq g'oyalari ilgari surdilar hamda uni amalga oshirish yo'lida fidoiylik ko'rsata oldilar. Shuning uchun ham bugun ularni o'rganish orqali milliy o'zligimizni anglashimizni rivojlantirishga erishishimiz mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, Erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
 2. Qoraboev U.X. O'zbek xalqi bayramlari. - Toshkent: Sharq, 2002.
 3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: O'zbekiston, 1998.
 4. Rashiddidin. Tarix to'plami. Ikkinchi jildi. M – L, 1952, 224-bet.
 5. Mirzo Ulug'bek. To'rt usul tarixi. - T.: 1994, 183-bet.
 6. Qosimov B. Milliy uyg'onish. Toshkent: Ma'naviyat, 2002, 4-bet.
 7. Otamuratov S. Specific Characteristics of Youth Social Group and its Place in Community Life. Periodica. Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. Volume 11, October, 2022. - P. 51-56.
 8. Sarvar Otamuratov. Социологическое изучение трансформации социально-инновационной деятельности молодежи Узбекистана, E- Global Congress, Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference. Date: 19th February, 2023. Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>. ISSN (E): 2836-3612.
 9. Otamuratov, S., Otamuratov, S., & Atamuratova, F. (2023, May). Sociological study of social and innovative activities of youth in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 06050).
- Абдрахимов А.Б., Аванесян С.В., Айналияева А.Р., Аксенова Т.В., Алавердян Е.С., Аламанова Е.А., ... и Шевченко Г.В. (2023). Фундаментальная и прикладная наука: состояние и тенденции развития.